

YURTIMIZ MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SINFLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

D.Darvisheva

Darvisheva Dilobar Bahodir qizi

*Namangan viloyati Mingbuloq tuman MMTga qarashli 5-sonli maktab boshlang'ich
sinf o'qituvchisiyo*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lif, innovatsion metod, motivatsiya, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar

Ta'lif o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rghanish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lif va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'lifning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lif-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'lifning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinni foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'lifi maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rghanish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lif-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirot etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarining tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslar tashkil etilsa, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi va ta'lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijobiy fikrlashga, olingen axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo'Igani kabi interfaol usullarni qo'llashdan maqsad bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchilarining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o'zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o'quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta'minlaydi. Matematika darslari interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tadi. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini juda o'yinqaroq bo'lishadi. Shuning uchun ham darslarni rang-barang metodlar bilan tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun "Ko'paytirish jadvali"ni tushunishda o'quvchi qiynaladi. Agar bu mavzu interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o'quvchining xotirasida qolishi osonroq bo'ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanmiz biz o'qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonalarini tashkil qilamiz. Oddiygina o'qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko'pchiligidagi o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarining birgalikdagi faoliyatlari usullari, bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarga erishiladi, o'quvchilarining dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Darsda o'quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir. Bu usullar maktab pedogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi: -dars va mavzuning maqsadlari to'g'ri aniq tanlanganda; -mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa; -bir metod butun darsni qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa; -tanlagan metod o'quvchilarga yangi axborotlarni yetkazib bersa, o'quvchi mavzuni nima haqidaligini tezgina tushuna oladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinni egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarни o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatlari vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lган ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixon, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik» - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini o'chib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'Imagan bitta tushunchaning o'rinni olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'Imagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'Imagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'Imagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'Imagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'Imagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi.

O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it.

So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do'sti.

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, dars vaqtida o'quvchilarning ta'lif faoliyati innovastion metodlar yordamida amalga oshirilsa, uning axborotni qabul qilishi samarali, oson kechadi va ta'lif samaradorligi yanada oshirishga yordam beradi. Bolaning aqli endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda pedagogning mahorati, uning o'qituvchilik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga mohirona talqin qila olishi, ta'lifning yangi-yangi

usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovastiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
2. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T; Istedod- 2010.
3. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integrastiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
- 4 . O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2017, T; Ma'naviyat.
5. Yuldashev Tojiddin Abdukarimovich, Urozov Fakhreddin Isokovich, & Shomurotov Ulugbek Melikmurodovich. (2023). Formation of Ideas About Marriage to Young People. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 18, 71–73. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3562>.